

FARG'ONA VILOYATI TOSHLOQ TUMANI ZOVURLARI IXTIOFAUNASI

Mubinaxon Raxmatjonova

Biologiya mutaxassisligi magistranti, Marg'ilon shahar 1-DIUM biologiya fani o'qituvchisi

Abstract: *In this article, the ichthyofauna of the ditches in the Toshloq district has been thoroughly investigated. Barbatula labiata is native species in Fergana region. So in our project we are giving morphometric characteristics and identifying height and weight relationship in it.*

Toshloq tumani Farg'ona viloyati hududida joylashgan bo'lib, g'arbdan Marg'ilon, shimoli-g'arbdan Qo'shtepa, Yozyovon, sharqdan Quva tumanlari, janubi-sharqdan Quvasoy shahri va shimoli-sharqdan Andijon viloyati Bo'z tumani bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 0,24 ming km.kv. ni tashkil etadi. Tuman hududining asosiy suv tarmog'i Isfayramsoy daryosi hisoblanadi. Qolaversa, sharqdan g'arb tomonga qarab oquvchi Katta Farg'ona kanali ham Toshloq tumanini kesib o'tadi. Shu bilan birga, tumanda yer osti sizot suvlarining sathini pasaytirish uchun qazilgan zovurlar ham mavjud.

Baliqlarni turli suv havzalari kesimida alohida tadqiq etish turlarning uchrash nuqtalari borasidagi aniq ma'lumotlarning ko'payishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida baliqlarning populyatsion holati, turlararo o'zaro munosabatlarni baholashda muhim hisoblanadi.

So'nggi yillarda Farg'ona viloyati tumanlari kesimida zovurlar ixtiofaunasining tur tarkibi, uchrash manzillari, tarqalish darajasi, geoaxborot ma'lumotlari borasida tadqiqot ishlariga e'tibor kuchaymoqda [1, 2, 3, 4, 5]. Jumladan, ayrim tadqiqotchilarning kuzatuv ishlarida Toshloq tumani hududida mavjud zovur-drenaj suvliklari ixtiofaunasining dastlabki natijalariga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazilgan [3].

Shunday bo'lsa-da, zovurlar kesimida aniqlangan baliq turlari tarkibi umumiy ixtiokompleksni yaxshiroq tushunishga kamlik qiladi. Shu bois ham, mazkur tadqiqot ishida Toshloq tumani hududida mavjud zovurlar ixtiofaunasining tur tarkibini chuqur tadqiq etish maqsad qilib olingan.

Namunalar 2023-2025-yillar mobaynida Toshloq tumanining g'arbiy, shimoli-g'arbiy va sharqiy qismida joylashgan zovurlarda olib borildi.

O'tkazilgan kuzatishlar natijasida Barbatula labiata baliqlarining morfometrik ko'rsatkichlari berilmoqda.

Bunda baliq turning asosiy kattaliklari qayd etiladi. Baliq turlarini o'lchash Farg'ona davlat universitetining Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida laboratoriyasida olib borildi.

Ushbu jadvalda Barbatula labiata namunalarining o'lchamlari berilgan.

TL (mm)	111,54	99,87	90,99	79,85	50,44	50,57
SL (mm)	96,08	85,72	77,97	67,38	42,55	43,02
Head length	22	19,46	18,66	16,4	10,77	10,76
Body depth	14,48	12,06	10,84	8,39	5,38	5,69
Predorsal length	52,25	47,91	42,73	36,36	24,16	23,66

Prepelvic length	50,25	45,75	39,18	34,17	22,18	22,93
Preanal length	68,01	62,9	53,37	48,7	30,25	29,84
Dorsal-fin length	17,55	15,18	14,03	21,01	8,13	8,17
Pelvic-fin length	14,98	12,44	12,27	12,22	5,47	7,38
Pectoral-fin length	14,51	14,66	13,72	9,42	4,56	7,09
Anal-fin length	13,97	11,57	11,65	10,18	4,25	5,11
Caudal-peduncle length	17,98	15,02	14,31	12,34	23,65	23,44
Caudal-peduncle depth	6,95	6,72	9,83	8,22	4,74	5,01
Pectoral-pelvic distance	20,17	26,06	22,85	21,32	11,29	11,59
Pelvic-anal distance	18,96	18,76	14,85	13,71	8,95	7,83
Head depth at nape	10,64	10,63	8,34	7,59	5,12	5,01
Snout length	9,86	8,73	7,71	6,56	4,38	4,75
Eye diameter	2,35	1,71	1,96	1,82	1,37	1,65
Interorbital width	5,09	5,5	5,42	4,25	3,14	2,09
Postorbital head length	10,94	8,94	8,75	7,7	4,38	4,88

Yuqoridagi natijalar dog'li yalangbaliqning nafaqat Toshloq tumani ichki zovur suvlaridagi populyatsiyalarini, qolaversa, Farg'ona vodiysi barcha suv havzalarida mavjud populyatsiyalarini morfometrik, morfologik, populyatsion ko'rsatkichlarini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шералиев Б., Шералиева М. Видовой состав рыб водоёмов Риштанского района Ферганской области // Актуальные проблемы использования и охрана природы Ферганской долины. Материалы научно-прикладной республиканской конференции. Наманган, 2014, 107-109.

2. Xalimov Sh., Sheraliyev B. Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani zovurlari ixtiofaunasi // "Ilm-zakovatimiz – senga, ona-Vatan!" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari, FarDU, 25-aprel, 2023-yil, Farg'ona, 2, 77-79.

3. Axmadjonova M.A., Nazarov M.Sh. Farg'ona viloyati Toshloq tumani zovur-drenaj suvliklari ixtiofaunasiga oid dastlabki tadqiqot natijalari // "Biologik tadqiqotlarda zamonaviy yondoshuvlarning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, FarDU, 29-30-noyabr, 2023-yil, Farg'ona, 160-161.

4. G'ulomov S. Farg'ona viloyati ichki zovurlari ixtiofaunasini o'rganishning dastlabki natijalari // "Biologik tadqiqotlarda zamonaviy yondoshuvlarning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, FarDU, 29-30-noyabr, 2023-yil, Farg'ona, 144-145.



5. Qayumova Y.Q. Farg'ona tumani ichki zovur va kollektorlar suvlari ixtiofaunasi // FarDU. Ilmiy xabarlar, 2024, 3 (ilova to'plam), 451-456.
6. Sheraliev B., Kayumova Y. Dzihunia pseudoamudarjensis, a new nemacheilid loach from the Syr Darya drainage (Teleostei: Nemacheilidae) // Zootaxa, 2024, 5536 (1), 185-192.